
Buvayda san'atkorlarining hisobot konserti bo'ldi

Buvayda tuman madaniyat va turizm markazida Rasulqori Mamadaliyev nomidagi maqomchilar xalq ansambli, "Tabassum" ashula va raqs xalq ansambli, "Shodlik" xalq havaskorlik ansambli, "Zarb" doirachilar xalq havaskorlar ansamblining hisobot konserti bo'lib o'tdi.

Respublika Madaniyat Vazirining shu yil 3 oktyabrdagi 136-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan konsertda "Maqomchilar" xalq ansambli tomonidan "Qo'qon ushshog'i" (Yusuf Sayrami g'azali), "Soqqiynomaiy savtikalon" (Bobur g'azali) qo'shiqlari kuylandi. "Tabassum" ashula va raqs xalq ansambli a'zolarining go'zal ijrolari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Yahyobek Mo'minov tomonidan ijro etilgan kuy- qo'shiqlar barchaga manzur bo'ldi.

Shuningdek, "Shodlik" estrada xalq havaskorlik jamoasi xonandalari- Jo'rabek Qodirov, Ravshanbek Dehqonov ijrosidagi kuy va qo'shiqlar, "Zarb" doirachilar tomonidan yangragan zarbli ohanglar yuraklarga jo'shqinlik ulashdi.

2023-10-19 10:18:48